



XULQ-ATVORDA O'ZGARISHLAR KUZATILGAN O'QUVCHILAR BILAN MAKTAB PSIXOLOGINING ISH USLUBLARI

Sapargulova Ra'no Mamatovna

*Toshkent viloyati Oqqurg'on tuman MMTBga qarashli 12-sonli umumiy o'rta
ta'lim maktabining amaliyotchi psixologi*

Jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, oilaviy muhitdagi beqarorliklar va raqamli muhit ta'siri maktab o'quvchilari ruhiyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, ayrim bolalarda xulq-atvorda salbiy o'zgarishlar – tajovuzkorlik, izolyatsiyalashuv, o'ziga ishonchsizlik, befarqlik, o'z-o'zini ifoda etishdagi qiyinchiliklar yoki haddan ortiq impulsivlik kabi belgilar namoyon bo'lmoqda. Bunday holatlar maktab amaliyotchi psixologidan puxta tayyorgarlik, tizimli monitoring va samarali korreksion ishlarni talab etadi.



Ilmiy adabiyotlarda xulq-atvordagi buzilishlar shaxsning ijtimoiy moslashuvida jiddiy to'siqlar yuzaga keltirishi, akademik muvaffaqiyatsizlik va emotsional beqarorlikka olib kelishi qayd etilgan. Shu sababli, maktab



psixologining vazifasi nafaqat mavjud muammolarni aniqlash, balki ularni oldini olish, bolaning ijtimoiy-psixologik salomatligini mustahkamlashga yo‘naltirilgan tizimli choralarni ko‘rishdan iborat.

Birinchi navbatda, xulq-atvoridagi o‘zgarishlar chuqur psixologik tahlilga muhtoj. Bu jarayon ko‘p hollarda multifaktorial xarakterga ega bo‘lib, unda oilaviy tarbiya, pedagogik yondashuv, bola shaxsining individual xususiyatlari va tashqi ijtimoiy ta’sirlar o‘zaro uyg‘unlashgan bo‘ladi. Amaliyotchi psixolog holatni to‘liq baholash uchun kuzatuv, suhbat, so‘rovnoma, loyihaviy metodlar (rasm, ertak terapiyasi, rol o‘yinlari), shuningdek, diagnostik testlardan foydalanadi.



Xulq-atvorda buzilish belgilari aniqlangan bolalar bilan individual va guruhiiy korreksion ishlar olib boriladi. Individual ishlarda bola psixologik himoyasini tiklash, o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnika va uslublardan foydalaniladi. Guruhiiy mashg‘ulotlar esa bolani ijtimoiylashuvga jalb etish, muloqot madaniyatini shakllantirish va o‘zaro munosabatlarda ijobiy o‘zgarishlar kiritish imkonini beradi.

Muvaffaqiyatli psixologik yondashuvni ta’minlashda ota-onalar va pedagogik jamoa bilan hamkorlik muhim omildir. Psixolog bolaning yaqin atrofidagi shaxslar



bilan muntazam aloqa o'rnatgan holda, ularga bolaning psixologik holati haqida ma'lumot beradi, zarur tavsiyalar bilan ta'minlaydi. Chunki boladagi xulqiy buzilishlar ko'pincha tashqi muhitdagi disfunktsiyalar – e'tibor yetishmovchiligi, qattiqqo'l yoki befarq munosabatlar, noto'g'ri pedagogik ta'sir natijasida shakllanadi.

Amaliyotda kuzatilgan holatlar shuni ko'rsatmoqdaki, psixologik yordam o'z vaqtida ko'rsatilsa, hatto og'ir xulqiy buzilishlar ham asta-sekinlik bilan ijobiy tomonga o'zgaradi. Bunda psixologning ishonchli, ogoh, mehribon va shu bilan birga professional yondashuvi hal qiluvchi omil hisoblanadi.



Xulosa qilib aytganda, maktab amaliyotchi psixologining xulq-atvorda o'zgarishlar kuzatilgan o'quvchilar bilan ishlash faoliyati chuqur tahlil, tizimli yondashuv, individual yondashuv va samarali hamkorlik asosida olib borilishi zarur. Bu esa nafaqat bola psixologik sog'lig'ini tiklash, balki uni sog'lom, ijtimoiy faol va maqsadga yo'naltirilgan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.